

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belarusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHOJIRDA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UYRI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusbovich

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQII MADANIYATIDA TABIIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG‘LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor AVAZ O‘TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li XORAZM VOHASI VA G‘ARBIY SO‘G‘D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich QUR‘ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA’S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich YANGI O‘ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O‘ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

Yangibayeva Nodira-
Ma'mun universiteti o'qituvchisi
Rahimova Mohigul-
O'qituvchi

HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670064>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Sh. Xolmirzayev va jahon adabiyotning yetuk vakili Jek Londonning ijdodagi mushtarak motiv va ularning individual uslubi masalasi ochib berildi. Shukur Xolmirzayevning "Qariya" hikoyasidagi Qo'ziboy chol va Jek Londonning "Hayot qonuni" hikoyasidagi Kuskush obrazlarining tadqiri, ularning bir xil, ya'ni hayot va mamot oldidagi qarorlari, tanlovi va uning tub sabablari mohiyati misollar yordamida ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar: motiv, ijodiy ta'sir, obraz, individuallik.

Янгибаева Нодира-
Преподаватель в Университете Мамун
Рахимова Махигул-
Учитель

ДВЕ РАЗЛИЧНЫЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ МОТИВА ЖИЗНИ-СМЕРТИ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается творчество народного писателя Узбекистана Ш. Раскрыт вопрос об общем мотиве и индивидуальном стиле в творчестве Холмирзаева и выдающегося представителя мировой литературы Джека Лондона. На примерах проиллюстрирована судьба персонажей Деда Козибо в рассказе Шукура Холмирзаева «Қария» и Кускуша в рассказе Джека Лондона «Хаёт қонуни», их решения, выбор, суть их фундаментальных мотивов, которые едины перед лицом жизни и смерти.

Ключевые слова: мотив, творческое влияние, образ, индивидуальность.

Yangibayeva Nodira-
Teacher of Mamun University
Rakhimova Makhigul-
Teacher

TWO TYPES OF ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE LIFE-MAMOT MOTIVE

ABSTRACT

This article reveals the common motif in the work of the people's writer of Uzbekistan Sh. Kholmirezayev and the outstanding representative of world literature Jack London and their individual style. The fate of the characters of the old man Koziboy in Shukur Kholmirezayev's story "The Old Man" and Kuskush in Jack London's story "The Law of Life", their decisions, choices and the essence of their common cause, that is, in the face of life and death, are shown with the help of examples.

Keywords: motif, creative influence, image, individuality.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Ma'lumki, adabiyotshunoslikdagi nazariy qarashlar adabiy ta'sir va turli millat adabiyotlari aro hamkorlik badiiy jarayonning muhim bir qismini tashkil qiladi. Qolaversa, bu ijodiy yaqinlashuv mazmunan hamohang asarlar yaratilishiga turtki bo'ladi. Bir-biriga o'xshash syujet, obrazlar kabi tipologik omillarning yuzaga kelishiga ba'zan tarixiy o'tmishi, mafkuraviy tuzumi, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlaridagi o'zaro hududiy yaqinlik sabab bo'lsa, ko'pincha ijodkorlarning professionallikka intilish uchun o'qigan asarlari, o'rgangan xorijiy yozuvchilarining hayoti faoliyati zamin vazifasini o'taydi. "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega" [1:1] ekanligi kun tartibida ekan, zamonaviy o'zbek adabiyoti vakillari, xususan, O'zbekiston xalq yozuvchi Shukur Xolmirzayevning adabiy merosi va ijodiy texnikasini ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berish tanlangan mavzuning zaruratini belgilaydi. Zero, Sh. Xolmirzayev jahonning buyuk yozuvchilari ijodini chuqur o'rgandi, ularning ma'lum bir jihatlarini o'zida shakllantirishga erishdi. Jumladan, amerikalik yozuvchi Jek London, rus adibi L. Tolstoy, hind yozuvchisi Robindranat Tagor ijodini sinchkovlik bilan mutolaa qiladi. Bu haqida adibning o'zi shunday fikr bildirgan edi: "Klassiklar deganda men to'rtta adibni eslatish bilan kifoyalanaman: rus adabiyotida Chexov, ingliz adabiyotida Jek London, hind adabiyotida Tagor va o'zimizning adabiyotda Abdulla Qahhor". [6: 33]

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Adabiyotshunoslik tarixida o'xshash motivlarning qiyosiy-tipologik tahlili va uning nazariy asoslari nemis donishmandlari ijodi bilan bog'liq. Jumladan, I.G.Gerder, I.V.Gyote, ingliz olimi J.Denlon, rus adabiyotshunoslari F.I.Buslaev, A.N.Veselovskiy, A.A.Potebnya, D.Dyurishin kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Adib bu nodir Shukur Xolmirzayev va Jek London ijodini qiyosiy metodda o'rganar ekanmiz, ular ijodidagi o'ziga xoslikni aniqlashga muvaffaq bo'lamiz. Shukur Xolmirzayev nodir iste'dod egalarining asarlarini o'qib, ulaning ijodiy tajribasidan o'rgansa arziydigan ko'p qirralarni egalladi, qayta ishladi, hatto sharqona usulda yangiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jek London va Shukur Xolmirzayev ijodidagi yaqinlik, avvalo, asarlarida ko'tarilgan mavzusida ko'zga tashlanadi. Har ikki adibning ijodida hayot va mamot masalasi ifoda etilgan motiv ko'zga tashlanadi.

Jek Londonning "Hayot qonuni" hikoyasidagi Kuskush va Shukur Xolmirzayevning "Qariya" hikoyasidagi qariya Qo'ziboy chol obrazlari misolida har ikki yozuvchi asarlaridagi ijodiy mushtaraklik va individual uslub masalasini o'rgandik. Aslida qariya, chol obrazining badiiy-falsafiy talqini kunimiz adabiyotshunoslari talqinida tez-tez ko'zga ko'rinadi.

Jumladan, olima M. Qo'chqorova Sh. Xolmirzayevning "O'zbek bobo" hikoyasi va korealik ijodkor Li Xo Chulning "Horg'inlik" hikoyasini o'zaro qiyosiy planda tadqiq qilar ekan, har ikki asardagi chollar obraziga diqqat qaratgan. "O'zbek bobo"dagi chol obrazi harakatdan to'xtamagan, tabiatni chin dilidan sevadigan, rostgo'y, mard inson sifatida talqin etilib, milliy xarakteri dinamik tarzda ochib beriladi. "Horg'inlik"da bir umr aqliy mehnat qilib, so'ngra iste'foga chiqqan bank prezidenti 70 yoshni qarshilagan qariyning ruhiy olamidagi kechinmalar,

jisman charchoq bilan yashayotgan ezgin inson timsoli sifatida talqin etiladi va ularni birlashtirgan adabiy rishtalar, farqli ijodiy prinsiplar ochiqdanadi. [10:139]

Biz yuqoridagi tadqiqotlarning mazmunan takrorlashdan yiroqmiz. Keksa insonning hayot va mamot orasidagi ruhiy holatini, aniqrog'i, ikki yozuvchining hayotiy materialga munosabatini, o'lim qarshisidagi insonning psixologik holatini badiiy talqini masalasini o'rganishni maqsad qildik.

Inson fojiasi manzaralari tasvirlangan "Hayot qonuni" va "Qariya" hikoyalari hajman kichik asarlar. Ammo "Har qanday asar – hajman kichik yoki katta bo'lishidan qat'iy nazar – mukammal xarakterlari, xotiraga muhrlanib qoladigan betakror epizodlari bilan adabiyot maydonida voqea bo'ladi; umrboqiylik maqoliga erishadi". [6:364]

Jek Londonning "Hayot qonuni" hikoyasida shimolda yashovchi qabilaning keska sardori Kuskush hayotining so'nggi kunlari berilgan. Bu qabila izg'irin shafqatsiz qishning azobini chekib, ochlik vajida qo'nimgohlarini tashlab ketishga majbur qoladilar. Bu qabiladagi sanoqligina qolgan qariyalarni na chang'ida olib ketish, na ular bilan birga qolishning iloji bor. Keksa Kuskush o'limini kutayotgan, ko'zlari ko'rmay qolgan odam. "Keksa Kuskushning butun vujudi quloqqa aylandi. Uning ko'zdan qolganiga ancha bo'lgan, lekin quloqlari avvalgidek sezgir, tiq etgan tovushni pay-qaydi. Yillar to'zonidan xira tortgan ongi esa ro'y berajak voqealarga nisbatan mutlaqo befarq". Ko'zdan qolgan bu qariyani allaqachon o'lim vasvasasi qurshab olgan: "Chol esa endi ajalga shu qadar yaqinki...Kuskush bir daqiqa bu fikrdan dahshatga tushdi".

Asarda qabila ko'ch-ko'ronini yig'ib, qariyalarni tashlab yashayotgan yerlarini tark etar ekan, Kuskushning ko'nglidan hayot qonuni, bolaligi, o'tmish kunlari bir-bir o'ta boshlaydi: Kuskush yoshlikning barcha xotiralari kabi bu manzarani ham aniq-tiniq eslar, ta'qibning so'nggi lahzalari uning so'nik nigohlarida olis o'tmishdagidek yaqqol aks etib turardi. Vaqt o'tib, qabila sardoriga aylanganida, u o'sha voqeani ko'p marta esladi...Kuskush o'z otasini Klondaykning yuqori oqimida qanday qoldirib ketganini esladi. Bu o'sha qishda, notanish missioner ularga duo yozilgan kitobchalar va dori to'la qutini keltirgan yili sodir bo'lgandi". Muallif qariyaning ruhiy-psixologik holatini ochib berarish uchun uning o'timishiga nazar soladi. Keksa Kuskushning o'g'li uning tashlab ketishga qaror qilgan, chol buni hayot uchun kurashish deb qabul qilsa ham, ammo uni qaytishini jon deb istardi: "Kuskush bir daqiqa sukunatga quloq soldi. Balki o'g'lining ko'ngli yumshab, itlar bilan orqaga qaytar, qabila bilan birga kekse otasini ham biqinlari moyga to'lgan bug'ular o'lkasiga olib ketar?!"

Kuskushning qarib, kuchdan qolgan xotini ham u bilan birga qo'nimgohda qoladi. Muallif qariyalarni ajal qarshisida yolg'iz – himoyasiz qoldiradi. Keksa Kuskush hamisha tabiat qonuni adolati bo'lishiga ishonadi: "Kuskush sira nolimas edi. Chunki hayot o'zi shunaqa, u juda adolatli. U zaminga yaqin bo'lgan yerda tug'ildi, shu yerda yashadi, tabiat qonunlari esa uning uchun yangilik emas. Illo, tirik jonzotlarning barchasi bu qonunlarga bo'ysunadi. Tabiat yakkalanib qolganlarga sira shafqat qilmaydi, uning butun e'tibori qabila va to'dalarga qaratilgan. Keksa Kuskushning ibtidoiy bilimlari bundan ortig'iga yetmas, ammo u bir haqiqatga qattiq ishonar edi. Buning isbotini u butun hayoti mobaynida kuzatib keldi. Daraxt shiraga to'ladi, yashil barglar chiqaradi, keyin xazonrezgi boshlanadi – bu aylanma harakat shu holatidagina mukammaldir. Tabiat esa har bir tirik jonzot zimmasiga alohida bir vazifani yuklab qo'ygan. Bu vazifani bajarmaganni u halok etadi. Biroq bajarganlar-da o'limga mahkumdir".

Jek London hayot va mamot orasida turgan kekse inson taqdirini juda nozik tomonlariga nazar solishni maqsad qilgan. Ajal qarshisida turgan insonning ko'nglidan kechadigan kechinmalar uni hamisha o'ylantirgan. Londonning ba'zi qahramonlari tabiatning asov kuchlari qarshisida mujodala qilsalar, ba'zilar shunchaki taslim bo'lishni afzal ko'radi. Kuskush sovuq ajal qarshisida so'nggi nafasiga qadar kurashishi mumkin edi, ammo uni bu hayotda tutib turadigan umid uchquni xuddi o'chay deb turgan gulxan kabi so'nib bitayotgan edi. Muallif tabiatning shafqatsiz qonunlari oldida inson hamisha ojiz qolajagiga ishora qiladi. Taslimiyat – kadarga rozilik, tark etilgan, yolg'iz, himoyasiz qolganini his qilgan qariyaning so'nggi chorasini bo'ladi. Muallif G'arb falsafasiga ko'ra yashash uchun kurashda zaiflar mag'lub bo'lishi tabiiy ekaniga ishora qiladi. Bu hayot qonuni, degan xulosaga keladi.

Bu hikoyadagi kabi hayot va mamot orasida turgan inson ruhiyati Shukur Xolmirzayevning “Qariya” hikoyasida Qo‘ziboy cholning taqdiri, kurashi misolida ochib beriladi. Qo‘ziboy chol Kuskush singari qabila sardori ham emas, kuchli ham emas: muallif uning tashqi ko‘rinishini shunday tasvir qiladi: “Qo‘ziboy chol – oriq, oyoqlari chilcho‘pdek. Yurganda boshini har tomonga burib, xuddi jarchilik qilayotgandek keskin-qaltis harakatlar qilib qadam tashlaydi. Kishilarga benihoya jiddiy nazar soladi. Choyxonaga kirs, umrida ko‘rmagan odami bilan ham nihoyatda quyuq so‘rashib, avlod-ajdodlarini surishtiradi”.[7: 201] Shukur qahramonining kuchi uning ruhiy quvvati hayotga bo‘lgan muhabbatning ildizini hikoya davomida kitobxonning o‘ziga kuchli qiziqish bilan izlatadi. Bolaligida tortgan yetimlik azobi, tirikchilik uchun mehnat qilishi, eng asosiysi, insoniy iroda va halollik uni qarib kuchdan qolganida ham tark etmaydi. Qo‘ziboy islom mafkurasidan bahra olgan inson, muallif buni ora-orada ko‘rsatib o‘tadi: “Cholning ota avlodidan ham, ona avlodidan ham hech kimi yo‘q. Shuni es-es biladiki, bolaligida qishloqlarini qurollangan odamlar bosgan. U somonxonaga bekinib jon saqlab qolgan. Keyin chorbozorchilarga qo‘shilib, ko‘mir koni yaqinidagi qishloqqa borgan. Qo‘y boqqan, pochtachilik qilgan. Bir eshonga murid tushib, yetti yil uning izidan yurgan”.

[7:202] Muallif qahramonidagi o‘lim vahimasini shunday tasvirlaydi: “Shundan beri chol yolg‘iz. To‘rt yil bo‘ldiki, uni o‘lim vahimasi chulg‘ay boshladi. Ko‘zi pishib ketgani uchun o‘limdan emas, jonkuyari bo‘lmagani uchun o‘lganini hech kim bilmay qolishidan qo‘rqadi”. [7:202]

Muallif qariyaning ichki barkamolligini, go‘zal iymonini ko‘rsatish uchun hikoyada rozi-rizolik qilish lavhasini ham keltiradi: “Odamlardan rozi-rizolik olish, qo‘shnilarning uyiga mo‘ralash, keyin bozorga borib, tanish-bilishlar bilan ham xo‘shlashish, Qobilboyga uchrab, xotining qabrini qanday qilib topishi va uchinchi kuni xaloyiqni chaqirib, yettisini ham, qirqini ham, yilini ham biryo‘la o‘tkazib yuborishni tayinlash, so‘ngra bozorkomga yo‘liqib, u bilan ham vidolashishni diliga tugdi...” Biroq bu qariyani oldinda uni daxshatli xabar kutayotgan edi. Qariyaning hayot va mamot masalasi bo‘lgan bu voqea qahramon hozirlanayotgan manzil yo‘lini ham o‘zgartirib yuboradi: “Shuning uchun, do‘stim, — davom etdi qariya, — men avvalambor, sizdan rozilik olmoqchiman. So‘ngra... andak vasiyatim bor.

— Vasiyat?!” [7: 202]

Muallif iymonli insofli odam bilan yonma-yon unga zid o‘laroq insofsiz, iymonsiz, yolg‘onchi insonni tasvirlaydi. Qassob yuzsiz bir inson timsoli bo‘lib, Qo‘ziboy cholning pulini bergan paytidayoq ishlatib yuborgan va bu qariyaning hech kimi yo‘qligi, “xudojo‘y hamda urish-janjaldan nari yurishini bilgani” sababli hech ikkilanmay omonatga xiyonat qilgan edi. Bu holatning anglagan Qo‘ziboy cholning g‘azabi qaynaydi. Jarchiligi tutib, baqira ketadi: “Eshitmadim demanglar! Suyunchisi bor... Qobil qassob past odam ekan. Men o‘limligim deb ming so‘m berib qo‘ygan edim, tondi! Xaloyiq! U pul sizlarning pullaringiz edi. Mening halol mehnatim uchun so‘mlab, tiyinlab bergan edingiz. Ana shu odamga berib, o‘limimga yarat deb edim... Tondi. Yeb ketadi endi... Odamlar, Qobil qassob haromxo‘r! Odamning haqini yeydi bu... Xudodan tilagim shuki, o‘ligi ko‘chada qolsin, bekafan bo‘lsin, xaloyiq... Meni bekafan qildi, odamlar!” [7: 202]

Yozuvchi qahramoni taqdiriga atay aralashmaydi, shunchaki qahramonlar ikki xil rol beradi — iymonli va iymonsiz odamlar kontrast holatda tasvirlaydi. Na bir guvohi, na bir yaqini yo‘q bo‘lgan chol o‘ligim ko‘chada qolmasin deb, yashashga qaror qildi: “U jimjit uyda, palos ustida cho‘zilib yotib, shu fikrga keldi: “Bu ahvolda men qandoq qilib o‘laman? Asti mumkin emas, sirayam... Men yana mehnat qilishim kerak. Halol pul topishim kerak. O‘limlik qilishim kerak... Undan keyin o‘lsam, boshqa gap...”

U qo‘shni chiqargan ovqatni zo‘rlab yedi. Yarim kechada turib, go‘sht qovurdi. Sahar uyg‘onib, soyga tushdi. Yuvindi. Tetiklanib, ko‘chaga yo‘l oldi... Qo‘ziboy chol avvalgidek bo‘lib ketdi”. [7: 203]

Shukur Xolmirzayev islom mafkurasiga ko‘ra o‘lim haq ekanini, banda uning oldida hamisha ojiz bo‘lishini tasvirlar ekan, or-nomus, o‘ligi hor bo‘lishidan qo‘rqish, janozasining o‘qilmay qolishini o‘limdan ham battar kulfat degan g‘oyani ilgari suradi. Olim H. Boltaboyev “Qariya” asarida “o‘zbek qariyalari uchun umuminsoniy umumhodisa bo‘lgan o‘limlik voqeasidan hammaga ibratli mantiq top”gan degan xulosaga keladi. [2:4]

Jek Londonning qariyasi ham o'lim haqiligiga ishonadi, ammo uning aslida o'limdan oldin o'lganini hikoya finaliga yetmasidanoq anglash mumkin. Mamot oldida bir xil vaziyatdagi, ya'ni umrining so'nggi kunlarini yashayotgan chollar turibdi. Biri yovvoyi hali madaniylashmagan qabila vakili, odam ham o'ldirgan, ovchilik qilgan keksa — *Koskush*. Ikkinchisi hayot qiyinchiliklariga qarshi tinimsiz kurashgan, halol mehnat qilgan, birovga pand bermagan, ammo pand yegan qariya — Qo'ziboy chol.

Kuskush o'zini bo'rilar hujum qilganida kurashib ham o'tirmaydi, yonidagi miltillab yonib turgan olovni cho'g'latishi, bu bilan bo'rilar haydashi, umuman, biroz bo'lsa-da kurashishi mumkin edi. Biroq o'z qo'llari bilan olovni o'chiradi. Olovdan qo'rqib yoniga yaqinlasholmayotgan vahshiylarga o'zini o'lja qilib beradi. To'g'ri, tabiatning yovvoyi falsafaga ko'ra hayot qonunida hamma narsa insonlar, jonzorlar yo'qlikka mahkum. Madaniylashgan hayotda o'limga munosabat farqli.

O'zbek xalqi uchun hayotda eng asosiy maqsad oila – vatan qilib o'zidan zurriyod qoldirish, ezgu amallari bilan odamlar xotirasidan “yaxshi inson” degan e'tirof olish, qarigan chog'ida jasad beega qolmasligi, kafansiz qolmasligi juda muhim. Qo'ziboy ana shunday o'zbeklarning tipi, uning halol mehnat bilan kun kechirishi, hech kimning dilini og'ritmasligi, iymonli, taqvo amallarini ham bajarishidan maqsad – ortidan kimsa uni yomon demasin, janozasi ko'ngildagidek o'tsin. O'limligi uchun yig'gan puldan ayrilishi uning uchun katta musibat. Aynan shu qon-qoniga singib ketgan oriyat, shu kulfat uni yana yashashga chog'laydi. Balki bu kulfatda ham bir hikmat bordir. Chol tushkunlikdan shu muammo sabab chiqishga intiladi, yana yashash uchun kurashadi. Qo'ziboy chol bunday yolg'izlikda joniga qasd qilishi yoki ichkilikka ruju qo'yishi, hayvon kabi kuni o'targa yashashi ham mumkin edi, ammo bunday qilmaydi. Ehtimol, islom dinining go'zal insonparvarik fazilatlaridan biri shu o'rinda ham o'zini yorqinroq namoyon qilayotgandir.

Olim O.Toshboyev bu qahramon haqida “Yozuvchi kitobxonni ezgulikka, bir yorug' nurga ishontirish, tortish maqsadida ham cholni oyoqqa qo'yadi...Uning yori — Xudo. Dilidagi Ollohga bo'lgan muhabbat va ishonch uni hayotga qaytaradi”. [5:236]

Har ikkala hikoyada yozuvchilarning o'ziga xos prinsipini aniq ko'ramiz: Sharqona islom mafkurasidan bahra olgan Shukur Xolmirzayev HAYOTNI, aniqrog'i, o'lim qarshisida ham milliy mintalitetdan kelib chiqib, pok vujud va ruh bilan qolishni tanlagan. Jek Londonning “Hayot qonuni” hikoyasida, har qancha keltirishga bahonalar bo'lsa-da, adib qahramoni sovuqqonlik bilan o'limni tanlaydi: “Shu damda Koskush, hayotga bu qadar tirmashish kerak yoki kerak emasligi haqida o'ziga xayolan savol berardi. Nihoyat, u aniq bir qarorga kelib, tutab turgan o'tinni qorga suqdi – olov o'chdi. Bo'rilar vahimali tovushda uvlashdi, lekin joylaridan jilishmadi. Bir ozdan so'ng Koskush yana bir bor keksa bug'uning so'nggi jangini kuzatdi. Cholning boshi og'irlashib tizzalari ustiga osilib qoldi. Alqissa, hammasi baribir emasmi? Axir, hayot qonuni shuni taqozo etadi”.

XULOSA

Ko'rinadiki, har ikki hikoyada qariyalar o'lim ostonasida, uning vasvasasiga tushgan holatdalar. O'lim qarshisidagi insonni badiiy talqin etish ikki yozuvchidan milliy harakter va milliy tafakkurning chuqur ildizlariga nazar solishni talab qilgan. Bu aslida badiiy adabiyotda uzoq zamonlardan beri takror va takror qalamga olinayotgan mavzudir. Adabiyotshunos olim Bahodir Karim ta'biri bilan aytganda: “Har holda har qanday insonning boshiga bir kunmas bir kun yetib keladigan bu hodisani tabiiy qabul qilish tuyg'usini tarbiyalash ham badiiy adabiyot zimmasidagi ishdir”[4:35] Xulosa shuki, ikki buyuk yozuvchi dunyoning ikki qutbida yashagan insonlarning o'lim qarshisidagi ruhiy holati, ijtimoiy, diniy, tasavvurlarini ochishga, keskalik davridagi inson qalbining tub manzaralariga kirishga muvaffaq bo'lgan. Individual ijodiy uslubidan kelib chiqib, asarning yechimini ikki xil tarzda berishgan. Hayot va mamot qarshisida turgan obrazlar talqini ijodkor estetik qarashlari, falsafiy olamidan sitilib chiqqan sintez hosilasi degan xulosa beradi.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi // Xalq so'zi, 2018-yil, 8-avgust.
2. Boltaboyev H.O'z so'zini izlab //O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1982-yil, 20-fevral. 4-bet.
3. Doniyorova Sh. Ijodkor va uslub. Toshkent. Turon-zamin ziyo nashriyoti. 2014. – 104 b.
4. Karimov B. Ruhیات alifbosi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 364 b.
5. Toshboyev O. Abadiy zamondosh./ Shukur Xolmirzayev hayoti va faoliyatidan lavhalar. – Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 236.
6. Xolmirzayev Sh. Men adabiyotni qismatim deganman...: adabiy o'ylar, maqolalar, suhbatlar. Toshkent: Sharq. 2022. – 488 b.
7. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar: hikoyalar. – Toshkent. Sharq. 2020. – 760 b.
8. Shukurova B. Ikki odamning ichki olami. Sharq yulduzi // Toshkent. 2025, № 1.
9. Xamidullayeva G. O'zbek va rus qissachiligida badiiy psixologizm: ijodkor fitrati va davr muammosi (F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy A.Qahhor, Sh.Xolmirzayev ijodi misolida).: filol. fanl. fals. d-ri (PhD) ... avtoref. – Urganch, 2023. – 58 b.
10. Qo'chqarova M. "O'zbek bobo" va "Horg'inlik"da badiiy shartlilik vositalari / Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari. – Toshkent. Muharrir. 2011. – 232.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000